



KREDIT PORTFELINING SOHALAR BO'YICHA DIVERSIFIKATSIYASI VA UNING SIFATI

Sabirova Lobar Baxromovna

Renessans ta'lim universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Lobarxon87@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 14

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1125>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

tijorat banklari, kredit portfeli, kredit sifati,
to'lovga layoqatsizlik, bank xatarlari,
moliyaviy barqarorlik.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tijorat banklari kredit portfelinin amaldagi holati batafsil tahlil qilingan. Unda bank kreditlarining tarkibi, sifat ko'rsatkichlari, to'lovga layoqatsiz kreditlar ulushi, soha va mintaqalar bo'yicha taqsimoti statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Kredit portfelinin hajmi va sifati bank faoliyatining barqarorligi hamda moliyaviy ko'rsatkichlariga qanday ta'sir qilishi tahlil etilgan. Shuningdek, amaldagi holatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ham berilgan.

Kirish. Rivojlanayotgan davlatlarda, ayniqsa bank tizimida davlat ishtiroki yuqori bo'lgan mamlakatlarda tijorat banklarining kredit portfelinin optimallashtirish dolzarb muammo sifatida qaraladi. Bunday davlatlarda davlat ulushidagi banklar iqtisodiyotning strategik yo'nalishlarini moliyalashtirishda asosiy rolni o'ynaydi. Ammo, bu banklar ko'pincha iqtisodiy emas, balki siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan kredit siyosatini yuritadilar. Natijada, kredit portfeli tarkibida yuqori riskli yoki daromadliligi past loyihalar salmoqli ulushni egallaydi. Shu bois, kredit portfelinin ilmiy asosda diversifikatsiya qilish, risklarni aniqlash va ularni boshqarish vositalarini kuchaytirish orqali portfelning barqarorligi va samaradorligini ta'minlash zaruratga aylanadi.

Davlat ulushi yuqori bo'lgan banklarda kredit qarorlarini qabul qilish jarayonida siyosiy bosimlarning mavjudligi, qarorlar bozor tamoyillariga emas, balki ma'muriy topshiriqlarga asoslanishi kuzatiladi. Masalan, davlat tomonidan belgilangan ustuvor sohalarni moliyalashtirish talab qilinadi, bu esa bankning kredit portfelinin bir yo'nalishga haddan ziyod yo'naltiradi va diversifikatsiya prinsiplariga zid keladi. Bunday sharoitda kredit portfeli tarkibidagi tarmoqlar o'rtasidagi balans buziladi, natijada portfel umumiy risk darajasi oshadi. Shuning uchun, ushbu banklar uchun portfel konsentratsiyasini o'lchovchi indikatorlardan – xususan, Herfindahl-Hirschman indeksi (HHI)dan foydalanish muhimdir.

Yana bir muhim jihat shuki, rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy bozorlarning chuqurligi va samaradorligi past bo'lishi sababli banklar kredit ajratishda kamroq axborotga ega bo'ladi. Bu asosan kredit oluvchilarning moliyaviy hisobotlari sifatsizligi, tahlil qilish vositalarining yetishmasligi va raqamlashtirish darajasining pastligi bilan bog'liq. Davlat banklarida bunday kamchiliklar yanada chuqurroq bo'lib, ularning kredit siyosatida tizimli risklarning kuchayishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, kredit portfelinin optimallashtirishda kredit riskini aniqlash va tahlil qilishga mo'ljallangan axborot tizimlarini joriy qilish zarur bo'ladi.

Shuningdek, davlat ishtirokidagi banklar ko'pincha iqtisodiy siyosat vositasi sifatida ishlatilgani sababli ularning kredit portfeli tarkibida bozordagi talabga emas, balki hukumat dasturlariga mos ravishda shakllangan segmentlar ko'p bo'ladi. Masalan, infratuzilma, energetika yoki qishloq xo'jaligi kabi sohalarga doimiy e'tibor qaratiladi. Natijada, bank portfeli uzoq muddatli va likvidligi past kreditlarga to'la bo'lib, foiz daromadi kamayadi. Shu sababli optimallashtirish doirasida kredit turlarining muddatlar bo'yicha balansini shakllantirish, likvidlik va rentabellik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi.

Oxir-oqibat, rivojlanayotgan davlatlardagi davlat banklarining kredit portfelinin optimallashtirish, faqat moliyaviy hisob-kitoblar emas, balki institutsional islohotlar, siyosiy neytrallik, axborot ochiqligi, risklarni baholash tizimlari bilan chambarchas bog'liq. Kredit portfeli tuzilmasini bozor mexanizmlari asosida qayta ko'rib chiqish, markazlashtirilgan qarorlar o'rniga kredit risklarini segmentlar kesimida baholovchi yondashuvlarni joriy qilish davlat banklarining barqarorligini

oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilaydi, balki uzoq muddatli kapitalga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Tijorat banklarida kredit portfelinin optimallashtirish metodikasi – bu bank aktivlarining samaradorligini oshirish, risklarni minimallashtirish va daromadlilikni ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan yondashuvlar majmuasidir. Ushbu metodlarga quyidagilar kiradi.

1. Kredit portfeli tarkibini tahlil qilish
2. Risklarni aniqlash va baholash
3. Diversifikatsiya strategiyasini ishlab chiqish
4. Portfelni optimallashtirish modellari
5. Monitoring va qayta baholash

Kredit portfeli tarkibini tahlil qilish. Kredit portfelinin umumiy hajmi va tarkibiy tuzilmasini o'rganish kredit siyosatining strategik jihatdan muhim bosqichidir. Avvalo, tijorat banki kredit portfeli hajmining yildan-yilga o'zgarish dinamikasi aniqlanadi. Bu orqali bankning iqtisodiy faolligi, kreditlash salohiyati va mijozlar segmentidagi kengayish darajasi tahlil qilinadi. Masalan, portfel hajmining doimiy o'sishi bank faoliyatidagi ekspansiya strategiyasini ko'rsatsa, keskin pasayishlar risklardan himoyalani, regulyator siyosati yoki iqtisodiy cheklavlar natijasi bo'lishi mumkin. Portfel hajmi o'zgarishlarini tahlil qilishda inflyatsiyaga moslashtirilgan real ko'rsatkichlardan foydalanish muhim, chunki nominal o'sish ortida pul qadrsizlanishi turishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Tijorat banklari kredit portfeli samaradorligini oshirish iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Kredit portfeli samaradorligini oshirish, tijorat banklariga nafaqat foyda olish imkoniyatini yaratadi, balki moliyaviy resurslarning optimal taqsimlanishini ta'minlaydi. Buning uchun banklar, kreditlashning barcha bosqichlarini tizimli ravishda qayta ko'rib chiqishlari zarur. Kreditlar berishning sifatini yaxshilash, mijozlarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish, shuningdek, kredit risklarini minimallashtirish samaradorlikni oshiradi. Banklar, shu bilan birga, kredit portfelinin diversifikatsiya qilish va yangi, yuqori rentabellikka ega bo'lgan sohalarga kreditlar ajratishni ko'zda tutishi kerak.

N.Mirza va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda yashil kreditlashning BRIC davlatlaridagi tijorat banklari kredit portfeli samaradorligiga ta'siri empirik va nazariy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqotda yashil kreditlar, ayniqsa kichik va o'rta biznes (KO'B) subyektlariga ajratilgan kreditlarning banklarning umumiy moliyaviy natijalariga ta'siri tahlil qilingan. Olimlar yashil kreditlash banklarning rentabelligini oshirishi, kredit xavflarini kamaytirishi va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashiga e'tibor qaratgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil kreditlarning ko'payishi banklar uchun ijobiy moliyaviy natijalar yaratadi, chunki bu kreditlar qaytarilish darajasi yuqori bo'lib, ekologik barqarorlikka asoslangan biznes modellari rag'batlantiradi. Shuningdek, maqolada yashil kredit siyosati orqali banklarning ishonchligi oshib, ularning uzoq muddatli investitsiyalar

uchun yanada jozibador bo'lishi ta'kidlangan. Empirik tahlil natijalariga ko'ra, BRIC davlatlarida yashil kreditlashning kengayishi banklarning umumiy aktivlari daromadligini oshirib, moliyaviy barqarorlik va kredit portfeli sifatining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ushbu natijalar yashil kreditlash strategiyalarini yanada keng joriy etish zarurligini asoslab beradi.¹

K.Miyamoto tomonidan olib borilgan tadqiqotda kredit portfelidagi risk hissalarini hisoblash uchun kvant algoritmlaridan foydalanish imkoniyatlari nazariy va empirik jihatdan o'rganilgan. Muallif an'anaviy moliyaviy tahlil usullari va kvant hisoblash yondashuvlarini solishtirib, kredit risklarini aniqlash va baholashda kvant kompyuterlarining samaradorligini oshirish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda kvant algoritmlarining katta hajmdagi murakkab kredit portfellarini tez va aniq tahlil qilishda ustunlik berishi ta'kidlangan, chunki an'anaviy hisoblash metodlari katta ma'lumotlar bilan ishlashda sezilarli vaqt va resurs talab qiladi. Empirik natijalar shuni ko'rsatadiki, kvant algoritmlari kredit xavflarining taqsimlanishini hisoblash jarayonini ancha tezlashtirib, banklarning portfel boshqarish strategiyalarini samaraliroq tashkil etishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kvant hisoblashdan foydalanish kredit risklarini diversifikatsiya qilish va optimallashtirishda yanada aniqroq prognoz berish imkonini yaratadi. Ushbu tadqiqot kvant texnologiyalarining tijorat banklari uchun yangi moliyaviy tahlil vositasi sifatida ahamiyatini ochib beradi va kelajakda bank sektorida kvant hisoblash texnologiyalarini keng joriy etish zarurligini asoslaydi.²

K.Jakob tomonidan olib borilgan tadqiqotda kredit portfeli modellari korrelyatsiya parametrlari baholash usullari o'rganilib, ayniqsa, vaqt o'zgaruvchanligi va nohomogen defolt ehtimollari sharoitida risklarni tahlil qilishga e'tibor qaratilgan. An'anaviy kredit risk modellari defolt ehtimollari odatda bir xil (gomogen) deb qaraladi va vaqt davomida barqaror bo'lishi taxmin qilinadi. Biroq, muallif ushbu yondashuvlar real bozor sharoitlarini to'liq aks ettirmasligi va defolt ehtimollarining vaqt o'tishi bilan o'zgarib borishini hisobga olish zarurligini asoslaydi. Tadqiqotda kredit portfelining xavfliligini aniqroq baholash uchun nohomogen va vaqt o'zgaruvchan defolt ehtimollari asosida korrelyatsiya parametrlari qanday optimallashtirilishi tahlil qilingan. Muallif korrelyatsiya koeffitsientlarini aniqroq hisoblash uchun yangi statistik modellar va maxsus ma'lumotlarga asoslangan baholash usullarini taklif qiladi.

Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kredit portfelidagi defolt xavflarining vaqtdan kelib chiqib o'zgarishi banklar uchun muhim risk omili bo'lib, uni hisobga olmaslik noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotda real bozor ma'lumotlariga asoslangan simulyatsiya ishlari olib borilgan bo'lib, natijalar defolt ehtimollarining o'zgaruvchanligi kredit portfeli risklarining dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlagan. Shu sababli, Jakob (2022) tijorat banklari va moliyaviy institutlarga kredit xavflarini boshqarishda yangi dinamik modellashtirish usullaridan foydalanishni tavsiya etadi, chunki bu risklarni aniqroq baholash va optimal kapital taqsimotini shakllantirish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlash va kredit risklarini aniqroq boshqarish uchun zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.³

J.Castillo va A.Mora-Valencia tomonidan olib borilgan tadqiqotda Kolumbiyaning Milliy Kafolatlar Jamg'armasi (NGF) tomonidan kafolatlangan KOB (kichik va o'rta biznes) kredit portfelida axloqiy tavakkalchilik (moral hazard) qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan. Mualliflar NGF tizimi orqali berilgan kreditlarda kredit oluvchilarning xatti-harakatlari qanday o'zgarishi, ushbu kafolatlar banklar va kredit tashkilotlari tomonidan qaror qabul qilish jarayoniga qanday ta'sir etishi masalalariga e'tibor qaratgan. An'anaviy iqtisodiy nazariyalarga asoslanib, mualliflar axloqiy tavakkalchilik xavfi oshgan hollarda qarz oluvchilar qarz mablag'laridan mas'uliyatsiz foydalanishi yoki to'lov intizomini buzishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu holat ayniqsa davlat tomonidan kafolatlangan kreditlarda ko'proq kuzatiladi, chunki qarz oluvchilar davlat kafolati sababli defolt xavfini past baholaydilar va moliyaviy intizomsizlik ehtimoli ortadi.

Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, NGF tomonidan kafolatlangan kreditlar bo'yicha defolt darajasi kafolatsiz kreditlarga

qaraganda sezilarli darajada yuqoriroqdir, bu esa axloqiy tavakkalchilikning mavjudligini tasdiqlaydi. Tadqiqot mualliflari turli statistik modellar va regressiya tahlillari yordamida NGF kafolatlari ostida berilgan kreditlarning to'lanish ehtimolini baholagan va natijalar shuni ko'rsatgan: kafolatlar miqdori oshgani sari qarz oluvchilarning defolt ehtimoli ham ortadi. Ushbu topilmalar davlat kafolat dasturlarining samaradorligini oshirish uchun yaxshiroq monitoring va tavakkalchilikni boshqarish tizimlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot tavsiflariga ko'ra, axloqiy tavakkalchilikni kamaytirish uchun kredit siyosatini takomillashtirish, qarz oluvchilarning moliyaviy barqarorligini yaxshiroq baholash va kredit monitoring tizimlarini kuchaytirish zarur. Bu esa nafaqat kreditlarning samarali ishlatilishini ta'minlaydi, balki kredit risklarini kamaytirishga ham xizmat qiladi.⁴

L.Mbeukam tomonidan olib borilgan tadqiqotda kredit portfelidagi o'tish (transition) risklarini baholash va xedjirlash (hedging) strategiyalari o'rganilgan. O'tish risklari – kredit oluvchilarning moliyaviy holatining vaqt o'tishi bilan yomonlashuvi yoki bozordagi makroiqtisodiy o'zgarishlar sababli kredit xavf darajasining oshishi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy tavakkalchiliklar sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda ushbu risklarni baholash uchun zamonaviy miqdoriy modellar, xususan, stokastik jarayonlar, noaniqlik nazariyasi va kredit reytinglarining dinamik o'zgarishiga asoslangan modellar qo'llanilgan. Mbeukam kredit portfeli boshqarish jarayonida ushbu o'zgaruvchan risklarni aniq baholash muhimligini ta'kidlab, optimal xedjirlash strategiyalarini ishlab chiqishning moliyaviy barqarorlik uchun ahamiyatini yoritadi. Empirik tahlillar natijalariga ko'ra, o'tish risklarining noto'g'ri baholanishi banklarning kredit portfeli barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi va natijada yo'qotishlarni minimallashtirish uchun derivativ vositalar hamda portfel diversifikatsiyasidan foydalanish tavsiya etiladi. Tadqiqot xulosalariga ko'ra, tijorat banklari va investorlar kredit xavflarini boshqarishda ilg'or statistik modellar va risk xedjirlash strategiyalaridan foydalanishi lozim, chunki bu kredit bozorlarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.⁵

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, tijorat bankari kredit portfelining amaldagi holatini tahlil qilishda tijorat banklarining rasmiy statistik ma'lumotlari olingan.

Tadqiqot natijalari. Kredit portfeli tijorat banklarining asosiy aktivlarini tashkil etadi va bankning moliyaviy barqarorligi, rentabelligi hamda likvidligi darajasini bevosita belgilab beradi. Kredit portfelining sifati va tuzilmasi bank kapitalining xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Agar bank kreditlarining katta qismi yaxshi baholangan, xavfi past bo'lgan mijozlarga ajratilgan bo'lsa, bu bankning daromad oqimini kafolatlaydi va moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Aksincha, yomon sifatlikka ega, qaytmas kreditlar ulushi yuqori bo'lgan portfel bankning moliyaviy holatini izdan chiqaradi, kapital yetarilishini pasaytiradi va hatto bankrotlik xavfini keltirib chiqaradi.

Barqaror kredit portfeli tarkibining diversifikatsiyalangan bo'lishi, ya'ni turli tarmoq, hudud, valyuta yoki muddatlarga qarab muvozanatli taqsimlangani tavakkalchilikni kamaytiradi. Masalan, faqat bir sohaga yo'naltirilgan kreditlar portfeli o'sha sohaga xos iqtisodiy tebranishlardan bankni bevosita zarar ko'rishga olib keladi. Shu bois, portfelni diversifikatsiya qilish orqali bank bir sohadagi salbiy holatlarni boshqa sohadagi ijobiy oqimlar bilan qoplash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yondashuv bankning tavakkalchiliklarni boshqarish strategiyasining muhim qismidir va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kredit portfelining barqarorligini ta'minlashda bankning kredit siyosati va kredit jarayonlarini monitoring qilish tizimi muhim o'rin tutadi. Kreditlar ajratilishidan oldin mijozning kreditga layoqatligi chuqur tahlil qilinishi, qarz yuki, moliyaviy hisobotlari, kafil va garov ta'minoti baholanishi zarur. Bundan tashqari, ajratilgan kreditlar bo'yicha muntazam monitoring olib borish, muddatidan oldin ogohlantirish tizimlarini joriy etish kredit sifati buzilishining oldini oladi. Ushbu amaliyotlar orqali kredit portfelining yomonlashuviga yo'l

¹ Mirza, N., Afzal, A., Umar, M., & Skare, M. (2023). The impact of green lending on banking performance: Evidence from SME credit portfolios in the BRIC. *Economic Analysis and Policy*, 77, 843-850.


² Miyamoto, K. (2022). Quantum algorithm for calculating risk contributions in a credit portfolio. *EPJ Quantum Technology*, 9(1), 1-16.

³ Jakob, K. (2022). Estimating correlation parameters in credit portfolio models under time-varying and nonhomogeneous hazard probabilities. *Journal of Credit Risk*, 18(4).

⁴ Castillo, J. A., & Mora-Valencia, A. (2023). The effect of moral hazard on the SMEs credit portfolio guaranteed by Colombia's National Guarantee Fund. *Estudios Gerenciales*, 39(168), 379-386.

⁵ Mbeukam, L. S. (2024). *Pricing and hedging of transition risk in Credit Portfolio* (Doctoral dissertation, Université Paris Cité).

qo'yilmaydi, bu esa bankning barqaror daromad manbaiga ega bo'lishini ta'minlaydi.




1-rasm. Mamlakatimiz bank tizimida kredit portfelining nominal qiymatda o'zgarish dinamikasi⁶ (mlrd.so'mda)

Kredit portfeli sifatini baholovchi asosiy ko'rsatkichlar – kreditlarning umumiy portfeldagi yomon (NPL) kreditlar ulushi, foiz daromadlarining o'sish sur'ati, kreditlar bo'yicha zaxiralar darajasi – bankning moliyaviy salohiyatini tahlil qilishda muhim indikatorlardir. Ushbu ko'rsatkichlar orqali banklar o'z faoliyatining xavf darajasini aniqlab, tegishli ehtiyot choralarini ko'rishadi. Agar yomon kreditlar ulushi oshsa, bu bank foydasining kamayishiga, zaxira mablag'larining ko'payishiga va investorlar ishonchining pasayishiga olib keladi. Shu bois, barqaror kredit portfeli nafaqat ichki moliyaviy holatni, balki bankning umumiy obro'-e'tibori va tashqi bozordagi pozitsiyasini ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi rasmda O'zbekiston bank tizimida 2016–2025 yillar oralig'ida kreditlarning nominal hajmi va ushbu kreditlar qiymatining

2016 yilga nisbatan o'sish dinamikasi tasvirlangan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, 2016 yilda kreditlar hajmi shartli ravishda 1 birlik deb belgilangan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 18,89 baravarga oshgan. Bu esa so'nggi 9 yil davomida banklar tomonidan iqtisodiyotga yo'naltirilgan kredit resurslarining hajmi sezilarli darajada ko'payganini anglatadi. Kreditlarning nominal hajmi 2016 yildagi 1 birlikdan 2025 yilda qariyb 550 trln so'mga yetgani kredit faoliyatining kengaygani, real sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining faol ishlaganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu o'sish nafaqat iqtisodiy faollik oshganidan, balki bank sektorining moliyaviy salohiyati, kapital bazasi va likvidlik darajasi kuchayganidan ham dalolat beradi.



2-rasm. Mamlakatimiz bank tizimida kredit portfelining real qiymatda o'zgarish dinamikasi⁷ (mlrd.so'mda)


Grafik tahlilidan ko'rinib turibdiki, kreditlarning real hajmi 2016 yildagi 1 birlikdan 2025 yilga kelib 6,71 baravarga oshgan. Bu o'sish nominal ko'rsatkichlardagi 18,89 baravarlik o'sishga qaraganda sezilarli darajada past bo'lsa-da, aynan real qiymatlar orqali kredit hajmidagi o'zgarishlarni tahlil qilish iqtisodiy jarayonlarning haqiqatga yaqin aksini beradi. Chunki nominal ko'rsatkichlar inflyatsiya, so'mning qadrsizlanishi kabi omillar ta'sirida sun'iy o'sish ko'rsatishini berishi mumkin, real ko'rsatkichlar esa bank sektorining haqiqiy kreditlash salohiyatini ifodalaydi.

Real kreditlarning o'sish dinamikasi 2018–2020 yillarda keskin sur'atda ortgan bo'lsa, 2021 yildan keyin nisbatan sekinlashgan. Bu esa kreditlash hajmi ortayotgan bo'lsa-da, inflyatsiya sur'atlarining yuqoriligi real o'sishni cheklayotganini anglatadi. Grafik shuni ko'rsatadiki, real qiymatdagi kreditlar 2020 yildan boshlab har yili taxminan barqaror tarzda oshib borgan va bu bank tizimining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kredit ko'rsatkichlarini real qiymatda tahlil qilish orqali banklar va tahlilchilar kredit portfelining haqiqiy hajmini, xarid qobiliyatidagi o'zgarishlar va iqtisodiy faollikni chuqurroq baholay oladi. Bu esa siyosiy qarorlar qabul

⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi


qilish, tavakkalchilikni baholash va moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.



3-rasm. Mamlakatimiz bank tizimida kredit portfelining muddatlariga ko'ra o'zgarish dinamikasi⁸ (mlrd.so'mda)

Yuqoridagi rasm O'zbekiston bank tizimida 2018–2024 yillar oralig'ida kredit portfelining muddatlarga ko'ra tarkibiy o'zgarishini aks ettiradi. Tahlildan ko'rinadiki, mazkur yillar davomida kreditlarning asosiy qismini uzoq muddatli kreditlar tashkil etgan bo'lib, ularning ulushi 2018 yilda 95,7 foizni tashkil etgan. Biroq bu ulush yildan-yilga kamayib borib, 2023 yilda 86,9 foizga, 2024 yilda esa 87,0 foizga tushgan. Shu bilan birga, qisqa muddatli kreditlar hajmi keskin o'sgan: 2018 yilda 4,8 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 61,2 trln so'mga yetgan — ya'ni deyarli 13 baravarga oshgan. Bu esa qisqa muddatli moliyalashtirish vositalariga bo'lgan talabning sezilarli ortganidan dalolat beradi. Ayniqsa, 2020 yildan keyingi davrda qisqa muddatli kreditlarning ulushi 8,5 foizdan 13,0 foizga ko'tarilgan bo'lib, bu banklar tomonidan qisqa muddatli likvidlikni ta'minlash, aylanma mablag'lar uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash va kichik biznesni rag'batlantirishga ko'proq e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

Mazkur tendensiyalar O'zbekiston bank tizimidagi so'nggi yillardagi strukturaviy islohotlar bilan bevosita bog'liqdir. Jumladan, 2020 yildan boshlab bank-moliya tizimini erkinlashtirish, davlat ulushini qisqartirish, xususiy banklar sonini oshirish va mikroqarzlash tizimini rivojlantirish bo'yicha qator huquqiy-me'yoriy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, Markaziy bankning pul-kredit siyosatini qat'iyalashtirishi va risklarni boshqarish tizimlarini kuchaytirish bo'yicha ko'rsatmalari banklar tomonidan kredit portfellarini diversifikatsiya qilishga olib keldi. Bu esa qisqa muddatli kreditlar hajmining oshishiga, uzoq muddatli kreditlar ulushining esa nisbatan pasayishiga sabab bo'ldi. Yana bir muhim jihat shundaki, kredit portfeli tarkibidagi ushbu muvozanat o'zgarishi bank tizimining dinamik va moslashuvchan bo'lib borayotganini, real sektor ehtiyojlariga tezkor javob qaytara olish qobiliyatining ortayotganini bildiradi. Shu sababli, bu tahlillar kredit siyosatini shakllantirishda vaqt omilining strategik ahamiyat kasb etayotganini ochiq ko'rsatib beradi.



4-rasm. Tijorat banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning sub'ektlariga ko'ra o'zgarish dinamikasi⁹ (mlrd.so'mda)


Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, kredit portfelining asosiy qismini hanuzgacha yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar tashkil etsa-da, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning hajmi va ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda. 2021 yilda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar 54,9 trln so'mni tashkil qilgan va bu umumiy kredit portfelining 19,8 foiziga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 117,5 trln so'mga yetib, kredit portfelidagi ulushi 33,3 foizni tashkil etgan. Bu esa 4 yil davomida jismoniy shaxslar kreditlari hajmining 3,2 baravarga oshganidan dalolat beradi.

Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi ham mutlaq miqdorda o'sishda davom etgan (2021 yildagi 222,1 trln so'mdan 2025 yilda 355,6 trln so'mga), biroq ularning umumiy kredit portfelidagi ulushi izchil kamaygan: 2021 yilda 80,2 foiz bo'lgan bo'lsa, 2025 yilda bu ulush 66,7 foizga tushgan. Bu nisbiy pasayish bank tizimining mijozlar bazasida jismoniy shaxslar segmentining tobora muhim o'rinni egallab borayotganini anglatadi. Ayniqsa, bu o'zgarishlar fonida iste'mol kreditlari, ipoteka kreditlari, ta'lim va tibbiyot sohalariga ajratilgan kreditlar bo'yicha dasturlarning kengaytirilgani sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, davlat tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga

⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

arzon kreditlar ajratilishi va mikromoliyalashtirish vositalarining kengaytirilishi ham ushbu dinamikani kuchaytirdi.




5-rasm. Kapitalida davlat ulushi mavjud tijorat banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning sub'ektlariga ko'ra o'zgarish dinamikasi¹⁰ (mlrd.so'mda)

2021–2025 yillar davomida kapitalida davlat ulushi mavjud banklar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi hamda ularning kredit portfelidagi salmog'ining o'zgarish dinamikasini tahlil qilamiz. Dastlab, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning hajmi 2021 yilda 48 040 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025 yilga kelib 92 698 mlrd so'mga yetgan, ya'ni 4 yilda 1,9 barobarga o'sgan. Bu o'sish, eng avvalo, aholi bandligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va kreditga bo'lgan talabning ortib borayotgani bilan izohlanadi. Shunga mos ravishda, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning ushbu banklar portfelidagi salmog'i ham 19,6% dan 25,3% gacha o'sib borgan.

Boshqa tomondan, yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi ham o'sishda davom etgan bo'lib, 2021 yilda 196 444 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 274 033 mlrd so'mga yetgan. Biroq ularning portfelidagi salmog'i 80,4% dan 74,7% gacha pasaygan. Bu o'zgarishlar davlat banklarining kredit siyosatida muvozanatli yondashuvga o'tayotganini anglatadi. Ya'ni avvalgi yillarda

asosan yuridik shaxslarga yo'naltirilgan resurslar endilikda jismoniy shaxslar segmentiga ham faol tarzda taqsimlanmoqda. Bu, o'z navbatida, bank tizimining ijtimoiy yo'naltirilganligini kuchaytiradi.

Mazkur tendensiyalar O'zbekiston bank tizimida olib borilayotgan tarkibiy islohotlar, xususan, davlat banklarining transformatsiyasi, kredit siyosatining diversifikatsiyasi hamda moliyaviy inkluziya siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Aholining bank xizmatlariga keng jalb qilinishi, mikro va kichik biznes subyektlariga imtiyozli kredit liniyalarining ochilishi, davlat dasturlari orqali iste'mol va ipoteka kreditlari ajratilishining kengayishi ushbu jarayonlarga turtki bo'lgan. Bundan tashqari, raqamli bank xizmatlarining ommalashuvi ham kreditlash faoliyatining geografik va ijtimoiy qamrovini kengaytirib, jismoniy shaxslar segmentining o'sishini qo'llab-quvvatlamogda. Shu asosda, kapitalida davlat ulushi mavjud banklar o'z portfellari tarkibini tobora muvozanatlashgan va ko'p segmentli kreditlash tamoyiliga mos tarzda shakllantirib bormogda.



6-rasm. Xususiy banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning sub'ektlariga ko'ra o'zgarish dinamikasi¹¹ (mlrd.so'mda)

Yuqiridagi rasm ma'lumotlarida 2021–2025 yillar davomida xususiy banklar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi hamda ularning umumiy kredit portfelidagi salmog'i ko'rsatilgan bo'lib, O'zbekistonda bank sektorini diversifikatsiya qilish, raqobat muhitini rivojlantirish hamda xususiy banklarning iqtisodiy faoliyatdagi rolini oshirish borasida amalga oshirilgan islohotlarning

samaralarini yaqqol aks ettiradi. Jumladan, 2021 yilda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi 6 848 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025 yilga kelib 84 834 mlrd so'mga yetgan, ya'ni 5 yil ichida deyarli 12,4 barobarga oshgan. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning portfelidagi ulushi esa 21,1 foizdan 51,0


¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

foizgacha o'sib, tizimda muvozanatli kreditlash siyosatining shakllanayotganini ko'rsatmoqda.

Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi ham o'sishda davom etgan: 2021 yilda 25 643 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 81 556 mlrd so'mga yetgan, ya'ni 3,2 barobarga oshgan. Biroq, kredit portfelidagi ulushi esa 78,9 foizdan 49,0 foizgacha pasaygan. Bu esa xususiy banklarning jismoniy shaxslar segmentiga

tobora ko'proq e'tibor qaratayotganini bildiradi. Ayniqsa, iste'mol, ipoteka, avtokreditlar kabi mahsulotlarning ommalashuvi, shuningdek, fintech xizmatlar orqali arizalarni tezkor ko'rib chiqish imkoniyatlari aholi talabining oshishiga va banklarning strategik e'tiborini o'zgartirishga sabab bo'lgan. Bu o'zgarishlar bank tizimida kredit bozorining segmentatsiyasi va mijozlar bazasining kengayib borayotganini ifodalaydi.




7-rasm. Mamlakatimiz bank tizimida kredit portfelining valyuta birliklariga ko'ra o'zgarish dinamikasi¹² (mlrd.so'mda)

2020–2025 yillar davomida xorijiy va milliy valyutadagi kreditlar o'rtasidagi nisbat va kredit portfelidagi salmoqlar dinamikasi O'zbekiston bank tizimida valyuta xavflarini kamaytirish va mahalliy valyutada moliyalashtirish imkoniyatlarining kengayib borayotganini ko'rsatadi. 2020 yilda xorijiy valyutadagi kreditlar hajmi 100 947,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 228 718,0 mlrd so'mga yetgan. Ya'ni 5 yilda xorijiy valyutadagi kreditlar hajmi 2,3 barobarga oshgan. Shu bilan birga, milliy valyutadagi kreditlar 2020 yildagi 110 633,2 mlrd so'mdan 2025 yilda 304 403,2 mlrd so'mga yetgan, bu esa 2,75 barobardan ortiq o'sishni anglatadi. Mazkur

statistik o'zgarishlar milliy valyutadagi kreditlar hajmining xorijiy valyutadagiga nisbatan tezroq o'sayotganini ko'rsatadi.

Kredit portfeli tarkibida xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi 2020 yildagi 47,7 foizdan 2025 yilda 42,9 foizgacha pasaygan. Aksincha, milliy valyutadagi kreditlar ulushi esa 52,3 foizdan 57,1 foizgacha oshgan. Bu o'zgarishlar moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi, chunki xorijiy valyutadagi kreditlar ko'proq valyuta kursi o'zgarishlariga sezuvchan bo'ladi. Milliy valyutada kreditlashning nisbatan ustunlik kasb etayotgani inflyatsiyani nazorat qilish, aholi va tadbirkorlar uchun foiz stavkalarining yanada prognoz qilinadigan va qulay shaklda shakllanishiga xizmat qiladi.



8-rasm. Tijorat banklari kredit portfelida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarining maqsadlariga ko'ra o'zgarish dinamikasi¹³ (trln.so'mda)

2021–2025 yillar davomida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar tarkibida ipoteka kreditlari hajmi barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etdi. 2021 yilda 28 300,8 mlrd so'mni tashkil etgan ushbu kreditlar hajmi 2025 yilga kelib 67 729,5 mlrd so'mga yetdi. Bu esa ipoteka kreditlari hajmi besh yilda qariyb 2,4 barobar oshganini bildiradi. Ipoteka kreditlarining bu darajada oshishi aholining uy-joy bilan ta'minlanish ehtiyoji ortib borayotganidan dalolat beradi. Bu jarayonda ipoteka kreditlarining past foizli va uzoq muddatli shartlarda taqdim etilishi, davlat tomonidan ipoteka dasturlarining moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi asosiy rol o'ynagan.

Mikroqarzlarning hajmi esa ayniqsa 2023 yildan boshlab keskin oshgan. 2021 yilda mikroqarzlarning hajmi 5 737,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilda bu ko'rsatkich 42 368,9 mlrd so'mga yetdi, ya'ni 7,4 barobarga o'sgan. Bu ko'rsatkich mikroqarzlarning aholining kundalik moliyaviy ehtiyojlarini qoplash, kichik biznes va o'zini o'zi band qilish faoliyatlarini boshlashda muhim moliyaviy manbaga aylanganidan darak beradi. Mikroqarzlarning hajmining bunday tez sur'atlarda o'sishi kredit infratuzilmasining quyi qatlamlarigacha kengayganini bildiradi.

Iste'mol kreditlari hajmida ham yillik o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2021 yilda bu ko'rsatkich 12 237,0 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 49 333,9 mlrd so'mga, 2025 yilda esa 46 576,6 mlrd

¹² O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi


¹³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

so'mga yetgan. Iste'mol kreditlari hajmi 2021–2025 yillar oralig'ida to'rt barobardan ortiq o'sganini ko'rish mumkin. Bu jarayon aholining tovar va xizmatlarga bo'lgan talabining oshgani, iste'molchilarning kreditlash orqali uzoq muddatli xaridlarni amalga oshirishga bo'lgan moyilligi ortganini ko'rsatadi. Ayniqsa, maishiy texnika, avtomobil va sog'liqni saqlash xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlar iste'mol kreditlari hajmida sezilarli rol o'ynagan.

Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar hajmi ham barqaror o'sish sur'atlariga ega. 2021 yilda ushbu kreditlar hajmi 8 612,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu raqam 19 523,0 mlrd so'mga yetgan. Bu esa 2,3 barobar o'sishni bildiradi. Bu turdagi kreditlarning o'sishi kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga, ayniqsa xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga oid dasturlar doirasida moliyalashtirish imkoniyatlari kengayganini bildiradi.

Iste'mol kreditlari 2021–2022 yillarda 12 237,0 mlrd va 12 795,3 mlrd so'm atrofida bo'lsa, 2023 yildan boshlab yuqoriroq qiymatlarga (25 234,2 mlrd, 49 333,9 mlrd va 46 576,6 mlrd so'm) erishgan. Tahlillarga ko'ra, banklar tomonidan iste'mol kreditini ajratish 2023 yildan boshlab keskin o'sishgan va bu kredit turining tobora ommalashayotganidan darak beradi.

2021–2025 yillar davomida tijorat banklari kredit portfelida yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar tarkibida eng katta ulushni kredit tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslarga berilgan kreditlar egallab kelmoqda. 2021 yilda ushbu kreditlar hajmi 203,4 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025 yilda 330,2 trln so'mga yetgan. Bu davrda mazkur kreditlar hajmi 126,8 trln so'mga yoki 62% ga oshgan. Bu o'sish ko'rsatkichlari yuridik shaxslar – xususan, korxona va tashkilotlar moliyaviy faoliyatining kengayib borayotganini, ularning tijorat banklariga bo'lgan talabining ortganini ko'rsatadi. Bu jarayonda real sektorni kreditlash ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda.



9-rasm. Tijorat banklari kredit portfelida yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarining turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi¹⁴ (trln.so'mda)

Lizing va faktoring operatsiyalari bo'yicha ajratilgan kreditlar hajmi esa nisbatan barqaror, biroq keskin o'zgarishlarsiz o'zgarib borgan. 2021 yilda bu ko'rsatkich 2,4 trln so'm bo'lgan bo'lsa, 2025 yilda 2,8 trln so'mga yetgan. 2023 yilda ushbu ko'rsatkich 1,6 trln so'mga tushganiga qaramasdan, keyingi yillarda asta-sekin tiklana boshlagan. Bu sohada o'zgarishlar moliyalashtirish mexanizmlaridagi talab o'zgarishlari, shuningdek, lizing xizmatlarining boshqa moliyalashtirish vositalari bilan raqobatiga bog'liqligi bilan tushuntiriladi.

Banklararo kreditlar hajmi bo'yicha esa kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2021 yilda bu ko'rsatkich 1,8 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025 yilda 0,7 trln so'mga tushgan. Bu 61% ga qisqarishni anglatadi. Bu holat banklar o'rtaidagi likvidlik ehtiyojlarining pasaygani yoki markazlashgan resurslar va boshqa manbalar orqali moliyalashtirishning kengaygani bilan izohlanadi. Banklararo kreditlarning hajmi kamayishi, banklar o'zlarining likvidlik siyosatini kuchaytirganidan va ichki fondlarni samarali boshqarish imkoniyatlari ortganidan dalolat beradi.

Mikrokreditlar segmenti esa 2021–2024 yillarda pasayish tendensiyasini ko'rsatgan bo'lsa-da, 2025 yilda keskin o'sishga erishdi. 2021 yilda bu kreditlar hajmi 10,6 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 5,3 trln so'mga tushgan, biroq 2025 yilda 17,1 trln so'mga yetib, deyarli 3 barobarga o'sdi. Bu keskin o'sish mikrokreditlarga bo'lgan talabning ortganini, ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlari tomonidan faol foydalanilayotganini bildiradi. Bu o'zgarish, shuningdek, banklar mikrokreditlash sohasidagi strategiyalarini qayta ko'rib chiqib, mazkur segmentni rivojlantirishga e'tibor qaratayotganidan darak beradi.

Sindisyalashtirilgan kreditlar hajmi nisbatan barqaror o'sish sur'atini saqlab kelmoqda. 2021 yilda 3,9 trln so'mni tashkil etgan ushbu kreditlar hajmi 2024 yilda 5,5 trln so'mga, 2025 yilda esa 4,8 trln so'mga yetgan. Bu kreditlar, odatda, yirik investitsion loyihalar va kapital talab qiluvchi ishlab chiqarish sohalariga ajratiladi. Sindisyalashtirilgan kreditlar miqdorining nisbatan barqarorligicha

qolayotgani – yirik kreditlar bozorining sekin o'sayotganini bildiradi. Shuningdek, yirik loyihalarining amalga oshirilish sur'ati, ularning moliyaviy bahosi va risk darajalari bu segmentdagi barqarorlikka ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosa va takliflar. Kredit hajmining keskin o'sishi banklar uchun muayyan xavflarni ham yuzaga keltiradi. Avvalo, bunday o'sish kredit sifati, ya'ni mijozlarning qarzni qaytarish qobiliyati va kreditlarning ta'minlanganlik darajasi bilan muvozanatda bo'lmasa, yomon kreditlar ulushi ortib ketish xavfi tug'iladi. Shu sababli, grafikda aks etgan raqamlar bank sektorining faqat hajmiy ko'rsatkichlar bo'yicha emas, balki sifat jihatdan ham o'sishini talab qiladi. Kredit portfelining barqarorligi, risklarni boshqarish tizimining mustahkamligi, shaffof monitoring va kredit siyosati siyosiy yoki ma'muriy bosimlardan holi bo'lishi muhim. Aks holda, bu o'sish bank sektorining ortiqcha yuklanishiga, moliyaviy barqarorlikning zaiflashishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kredit hajmining keskin o'sishini tahlil qilishda inflyatsiya, iqtisodiy o'sish sur'ati va real sektorning samaradorligi bilan bog'liq murakkab omillarni hisobga olish zarur.

Umuman olganda, mazkur tendensiyalar bank sektorining diversifikatsiyalashuvi, kredit portfelining ko'p qirrali segmentlarga ajralib borayotgani va risklarni muvozanatlashgan holda boshqarish mexanizmlarining shakllanayotganini ko'rsatadi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushining ortib borayotgani banklar uchun barqaror daromad manbai hisoblanadi, chunki bu segment, odatda, katta miqdordagi kreditlar emas, balki ko'plab mayda kreditlar orqali portfelni kengaytiradi. Bu esa kredit portfelining xatar darajasini pasaytiradi va bank barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, so'nggi yillarda kuzatilayotgan bu strukturaviy siljishlar moliyaviy tizimda muhim sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirib, bank xizmatlarining aholiga yanada yaqinlashishiga olib keldi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bank sektorini liberallashtirish, xususiy banklarning raqobatbardoshligini oshirish va xorijiy kapital

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ishtirokidagi banklar sonini ko'paytirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. Xususan, "Ipoteka-bank", "Asaka bank", "O'z sanoatqurilishbank" kabi yirik davlat banklarining xususiy lashtirish jarayonlari ham umumiy tizimga raqobat ruhi olib kirib, xususiy banklar uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Shuningdek, "Open banking" ekotizimi, raqamli identifikatsiya va mijozga yo'naltirilgan xizmatlar orqali xususiy banklar aholining keng qatlamiga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Natijada, xususiy banklar jismoniy shaxslar segmentida faol o'sishga erishdi va kredit portfelining yarmidan ortig'ini ushbu segment egallaydi. Bu esa islohotlarning amaliy samarasi sifatida baholanishi mumkin.

Milliy valyutadagi kreditlarning hajm jihatidan ortib borayotgani nafaqat makroiqtisodiy barqarorlik, balki banklar uchun aktivlar sifati va kredit xavflarining kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Milliy valyutada moliyalashtirishning kengayishi bilan banklar kredit siyosatini yanada moslashuvchan yurita boshladi, bu esa, o'z navbatida, kredit oluvchilar soni va kreditlash segmentlarining diversifikatsiyalashuviga olib keldi. Xorijiy valyutadagi kreditlarning nisbatan pasayib borayotgan salmog'i esa tashqi qarzlikka bog'liqlikning kamayib borayotganini bildiradi. Bu jarayonlar, o'z navbatida, mamlakat moliyaviy tizimining ichki manbalar hisobidan rivojlanayotganini anglatadi.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar tarkibida mikroqarzarlar va iste'mol kreditlarining tez o'sishi, banklar tomonidan chakana moliyalashtirish bozoriga bo'lgan e'tibor ortganini bildiradi. Bu jarayon bank tizimining xizmatlar doirasini aholining keng qatlamlariga yoyish,

moliyaviy inkluziyani oshirish va kredit bozorida raqobatning kuchayishi natijasidir. Barcha kredit turlari bo'yicha barqaror o'sish tendensiyasi esa jismoniy shaxslar moliyaviy imkoniyatlarining kengayib borayotganidan va banklar bilan aloqalarning kuchayganidan dalolat beradi.

Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar tarkibi bo'yicha o'zgarishlar tijorat banklarining moliyalashtirish strategiyalarida sezilarli darajada diversifikatsiyalashga intilayotganini ko'rsatadi. Eng katta hajm kredit tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslarga to'g'ri kelmoqda, biroq mikroqarzarlar segmentining keskin o'sib borayotgani, shuningdek, sindisiyalashtirilgan kreditlarning barqarorligi, bank tizimi yirik va kichik subyektlar uchun birdek moliyaviy xizmatlarni taklif qilayotganidan dalolat beradi. Banklar o'rtasidagi kreditlash hajmining pasayishi esa tizimda moliyaviy mustahkamlikning ortayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tijorat banklari tomonidan sektorlar bo'yicha kredit qo'yilmalari O'zbekiston iqtisodiy strategiyasidagi ustuvor yo'nalishlar bilan chambarchas bog'liq. Sanoat va qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan kreditlar hajmining sezilarli darajada ortishi, ayniqsa klasterlash, eksportbop mahsulot yetishtirish, urbanizatsiya va xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar samarasidir. Shu bilan birga, ayrim tarmoqlarda, xususan, uy-joy kommunal xizmati va moddiy-texnik ta'minotda past o'sish yoki qisqarishlar kuzatilayotgani bu yo'nalishlardagi kredit siyosatini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirza, N., Afzal, A., Umar, M., & Skare, M. (2023). The impact of green lending on banking performance: Evidence from SME credit portfolios in the BRIC. *Economic Analysis and Policy*, 77, 843-850.
2. Miyamoto, K. (2022). Quantum algorithm for calculating risk contributions in a credit portfolio. *EPJ Quantum Technology*, 9(1), 1-16.
3. Jakob, K. (2022). Estimating correlation parameters in credit portfolio models under time-varying and nonhomogeneous default probabilities. *Journal of Credit Risk*, 18(4).

4. Castillo, J. A., & Mora-Valencia, A. (2023). The effect of moral hazard on the SMEs credit portfolio guaranteed by Colombia's National Guarantee Fund. *Estudios Gerenciales*, 39(168), 379-386.
5. Mbeukam, L. S. (2024). *Pricing and hedging of transition risk in Credit Portfolio* (Doctoral dissertation, Université Paris Cité).
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari